



Rafiqjon R. ZARIPOV,

DSc, dotsent v.b, *Renessans ta'lim universiteti. Toshkent. O'zbekiston*  
E-mail: [zaripovrafiqjon1@gmail.com](mailto:zaripovrafiqjon1@gmail.com), ORCID: 0000-0002-2924-4346

*Amaliy fanlar universiteti tadqiqotchi professori, f.f.d. B.Mengliyev taqrizi asosida*

## COMMUNICATIVE-PRAGMATIC PROPERTIES OF PARAVERBAL AND EXTRALINGUISTIC MEANS

Annotation

This article analyzes the role of paraverbal and extralinguistic means in the process of verbal communication and their communicative-pragmatic capabilities. The role of prosodic means such as speech rate, timbre, volume, tone of voice, stress, emphasis, intonation, rhythm and pause in the formation of speech content is highlighted from a scientific point of view. The importance of cough, sigh, laugh, cry, sigh and other extralinguistic sounds in expressing a person's emotional state, communicative intention and social relations is also shown.

**Keywords:** paraverbal, extralinguistics, prosody, speech rate, timbre, volume, tone of voice, stress, emphasis, intonation, rhythm, pause, cough, sigh, laugh, cry, pragmatics.

## КОММУНИКАТИВНО-ПРАГМАТИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ПАРАВЕРБАЛЬНЫХ И ЭКСТРАЛИНГВИСТИЧЕСКИХ СРЕДСТВ

Аннотация

В данной статье анализируется роль паравербальных и экстралингвистических средств в процессе вербальной коммуникации и их коммуникативно-прагматические возможности. С научной точки зрения подчеркивается роль просодических средств, таких как темп речи, тембр, громкость, тон голоса, ударение, акцент, интонация, ритм и пауза, в формировании содержания речи. Также показана важность кашля, вздоха, смеха, плача и других экстралингвистических звуков в выражении эмоционального состояния человека, коммуникативного намерения и социальных отношений.

**Ключевые слова:** паравербальные, экстралингвистика, просодия, темп речи, тембр, громкость, тон голоса, ударение, акцент, интонация, ритм, пауза, кашель, вздох, смех, плач, прагматика.

## PARAVERBAL VA EKSTRALINGVISTIK VOSITALARNING KOMMUNIKATIV-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada paraverbal va ekstralingvistik vositalarning og'zaki muloqot jarayonidagi o'rni hamda ularning kommunikativ-pragmatik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Nutq tezligi, tembr, ovoz balandligi, ovoz toni, urg'u, gap urg'usi, ohang, ritm va pauza kabi prosodik vositalarning nutq mazmunini shakllantirishdagi roli ilmiy nuqtayi nazardan yoritiladi. Shuningdek, yo'tal, xo'rsinish, kulish, yig'lash, uh tortish va boshqa ekstralingvistik tovushlarning insonning hissiy holati, kommunikativ niyati va ijtimoiy munosabatlarini ifodalashdagi ahamiyati ko'rsatib beriladi.

**Kalit so'zlar:** paraverbal, ekstralingvistika, prosodika, nutq tezligi, tembr, ovoz balandligi, ovoz toni, urg'u, gap urg'usi, ohang, ritm, pauza, yo'tal, xo'rsinish, kulish, yig'lash, pragmatika.

**Kirish.** Zamonaviy tilshunoslikda inson muloqoti faqat tilning leksik va grammatik birliklari orqali emas, balki nutqqa hamroh bo'luvchi turli paralingvistik va ekstralingvistik vositalar orqali ham amalga oshirilishi e'tirof etilmoqda. Muloqot jarayonida so'zlar muayyan axborotni uzatish vazifasini bajarsa, paraverbal vositalar ushbu axborotning hissiy-ekspressiv, baholovchi va pragmatik jihatlari namoyon etadi. Shu sababli kommunikatsiyaning haqiqiy mazmunini anglash ko'pincha faqat verbal birliklarni emas, balki nutqning intonatsion, ritmik va emotsional xususiyatlarini ham hisobga olishni talab etadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Paraverbal va ekstralingvistik vositalarning nutqdagi o'rni tilshunoslikning fonetika, paralingvistika, pragmalingvistika hamda kommunikatsiya nazariyasi yo'nalishlarida keng o'rganilgan. Rus tilshunosligida Nikolay Trubetzkoy, Roman Jakobson va Lev Shcherbalarining fonetik va prosodik hodisalarga oid ishlari urg'u, ohang, ritm va melodikaning nutq semantikasi bilan uzviy bog'liqligini ilmiy asoslab bergan. O'zbek tilshunosligida fonetika va nutq ohangi masalalari M.Mirtojiev, A.Abdualizov, H.Jamolxonov va boshqa olimlarning ilmiy izlanishlarida tahlil qilingan bo'lib, ularda urg'u, intonatsiya, ritm va pauzaning fonetik xususiyatlari yoritilgan. Biroq pauza, yo'tal, xo'rsinish, kulish, yig'lash

kabi ekstralingvistik vositalarning kommunikativ-pragmatik imkoniyatlari hamda ularning og'zaki nutq mazmunini shakllantirishdagi o'rni hali ham chuqur tadqiq etilishi zarur bo'lgan masalalardan biri hisoblanadi.

Shu jihatdan mazkur tadqiqot paraverbal vositalarning prosodik va ekstralingvistik komponentlarini yaxlit tizim sifatida tahlil qilish, ularning nutqning emotsional-ekspressiv hamda pragmatik mazmunini shakllantirishdagi o'rni aniqlashga qaratilgan bilan mavjud ilmiy ishlardan farqlanadi. Bu jihatlarni yoritishda L.S.Vigotskiy, A.R.Luriya, V.B.Kashkin, F.Kliks, A.A.Lyeontyev, B.Yu.Norman, Yu.S.Styepanov, V.Fishyel, B.V.Yakushin, Sh.Shoyimova, Sh.Usmanova, G.Rixsiyeva kabi tadqiqotchi va soha olimlari izlanishlariga tayanganmiz.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotning obyekt sifatida paraverbal va ekstralingvistik vositalarning kommunikativ-pragmatik xususiyatlariga tegishli materiallar olingan. Tadqiqot tavsifida, lingvistlar, pragmalingvistlar, paralingvistlar, neyrolingvistlar, psixolingvistlar, kommunikatsiya tadqiqotchilarining tahliliga tayangan holda ish ko'rildi. Tadqiqotda lingvistik tavsiflash, sistem, statistik, tavsiflash, tasniflash, analiz, sintez, lingvistik eksperiment ilmiy tahlil metodlaridan foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar.** Paraverbal vositalar – og'zaki nutq bilan birga keladigan, unga qo'shimcha ma'no qo'shadigan ovozi signallar to'plami. Paraverbal muloqotning maqsadi – suhbatdoshda ma'lum maqsad va niyatlarga erishish uchun zarur bo'lgan his-tuyg'ularni, qarashlarni, tajribalarni uyg'otish. Bunday natijalarga odatda paraverbal aloqa vositalari yordamida erishiladi [3]. Ular: prosodika – nutq tezligi, tembr, ovoz balandligi va ovozning toni; Ekstralingvistika – pauza, yo'tal, xo'rsinish, kulish va yig'lash (ya'ni biz ovozimiz yordamida chiqaradigan tovushlar) [2].

Ma'lumki, nutq zanjirini eslatuvchi bir hodisadir. Zanjirda ayrim xalqalar birin-ketin kelganidek, nutq jarayonida nutq tovushlari, bo'g'inlar, taktlar birin-ketin zanjirsimon namoyon bo'ladi.

So'zlarda bo'g'inlarni, gaplarda so'zlarni va so'zni ma'lum vositalar bilan boshqalaridan ajratib ko'rsatish tillardagi so'z va fraza urg'ulari bilan bog'liq.

So'z urg'usi bir mustaqil so'zni yoki unga bog'lanib kelgan bir yoki bir nechta yordamchi so'zlar guruhini boshqalardan ajratib ko'rsatish demakdir. Zamonaviy tilshunoslik dunyo tillarida dinamik, miqdor, musiqaviy urg'uni farqlaydi.

Dinamik urg'uda ajratib ko'rsatilayotgan bo'g'in kuchli talaffuz qilinadi.

Miqdor urg'usiga ega bo'lgan tillarda urg'u olgan bo'g'indagi unli cho'ziqroq talaffuz qilinadi.

Musiqaviy urg'uga ega bo'lgan tillarda urg'u olgan bo'g'in ovoz tonini ko'tarish va pasaytirish yo'li bilan ajratib ko'rsatiladi. Shuning uchun bu urg'u tonik urg'u deb ham yuritiladi.

Ohang o'z ichiga tilda grammatik ma'noni ifodalash uchun xizmat qiladigan melodika bilan urg'uni qamrab oladi. Lekin melodika va urg'uning roli hamma tillarda bir xil emas.

Melodika deganda ton balandligining o'zgarishi tushuniladi.

Urg'u deganda, nutqning birorta bo'lagi (bo'g'in, so'z)ni ma'lum vositalar yordamida (kuchliroq, cho'ziqroq) talaffuz qilish yo'li bilan ajratish tushuniladi.

Urg'uning o'rniga ko'ra - turg'un urg'uli tillar va erkin urg'uli tillar farqlanadi.

Turg'un urg'uli tillarda urg'u doimo so'zning ma'lum bo'g'iniga tushadi. Bu jihatdan turg'un urg'uga ega bo'lgan tillarni o'rganish qulay, chunki urg'u masalasida faqat bitta qoidani bilib olishning o'zi kifoya.

Erkin urg'uli tillarda urg'u so'zning qaysi bo'g'iniga tushishini oldindan bilish mumkin emas. Bunday tillarda urg'u so'zning har xil bo'g'inlariga tushishi mumkin.

So'z urg'usi so'zdagi bo'g'inlarning birini boshqalariga nisbatan ajratib ko'rsatishni nazarda tutsa, fraza urg'usi so'z birikmalari yoki bir nechta so'zni boshqalaridan ajratib ko'rsatishni nazarda tutadi.

Fraza urg'usi ohangning tarkibiy qismidir. Fraza urg'usidan tashqari ohang tarkibiga nutqning ritmik-melodik tuzilishi ham kiradi.

Nutq jarayonida urg'u olgan va urg'u olmagan bo'g'inlarning birin-ketin kelishi natijasida nutqning ritmi paydo bo'ladi. Almashinib keluvchi urg'uli va urg'usiz bo'g'inlar bir vaqtning o'zida nutqning ohangini ta'minlaydi, chunki urg'uli ovoz tonini ko'tarishni, urg'u olmagan esa tonning pasayishini taqozo etadi. Shunday qilib, nutq ohangi murakkab fonetik vositalar yig'indisidan tashkil topgan bo'lib, unga gap urg'usi, ohang, pauza, nutq tezligi, ritm, tembr kiradi.

Odatda ohangni ikki turga ajratishadi: pasayuvchi va ko'tariluvchi.

Pasayuvchi ohang ko'proq darak gaplarning birinchi sintagmasida, undov-buyruq gaplarda, ko'tariluvchisi esa, so'roq gaplarda ishlatiladi. Nutq jarayonida bu ikki ohangning

birikuvchi ham uchrashi mumkin, bu hol ko'tariluvchi-pasayuvchi ohang deb yuritiladi [1].

Paraverbal vositalar tizimida nutq tezligi, tembr, ovoz balandligi, ovoz toni, urg'u, gap urg'usi, ohang, pauza va ritm inson nutqining nafaqat fonetik, balki kommunikativ-pragmatik mazmunini ham shakllantiruvchi muhim komponentlar hisoblanadi. Ushbu vositalar tilning segment birliklari – tovush, bo'g'in, morfema va so'zlardan farqli ravishda supersegment birliklar sifatida namoyon bo'ladi hamda nutqning emotsional-ekspressiv, kommunikativ va pragmatik ma'nolarini ifodalashda alohida ahamiyat kasb etadi.

Nutq tezligi nutq jarayonida tovushlar, bo'g'inlar, so'zlar va sintaktik birliklarning ma'lum vaqt oralig'ida talaffuz qilinish sur'atini anglatadi. Nutq tezligi kommunikativ vaziyat, ma'ruzachining ruhiy holati, nutqning maqsadi va tinglovchining qabul qilish imkoniyatlari bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Nutq tezligi ortgan sari axborot hajmi ko'payadi, biroq mazmunning idrok etilishi qiyinlashishi mumkin, aksincha, juda sekin nutq tinglovchining diqqatini susaytiradi va kommunikativ ta'sirchanlikni kamaytiradi.

Tembr nutq tovushining individual akustik sifati. Tembr insonning fiziologik tuzilishi, tovush apparati holati va psixologik kayfiyati bilan bog'liq ravishda shakllanadi. Tembr orqali ma'ruzachining yoshi, jinsi, ruhiy holati va hatto ijtimoiy mavqei haqida muayyan tasavvur hosil qilish mumkin.

Ovoz balandligi tovush energiyasining kuchi bilan belgilanadi va akustik jihatdan tovush amplitudasiga bog'liq bo'ladi. Ovoz balandligi kommunikativ vaziyatga mos ravishda o'zgarib turadi. Ovoz balandligi nutqning ekspressivligini kuchaytiradi, hissiy munosabatni ifodalaydi va ma'lum semantik birliklarni ajratib ko'rsatishga xizmat qiladi. "Bu ishni albatta bajarish kerak!" gapidagi "albatta" so'zi balandroq talaffuz qilinsa, majburiylik va qat'iylilik ma'nosi kuchayadi.

Ovoz toni nutq davomida ovozning baland-past harakatlanish xususiyatidir. U melodik strukturaning asosiy elementi sifatida nutqning emotsional rang-barangligini ta'minlaydi. Masalan, bir xil "Rahmat" so'zi turli tonlarda aytilganda minnatdorchilik, istehzo, norozilik yoki befarqlik ma'nolarini ifodalashi mumkin. Ovoz tonining o'zgarishi nutqning pragmatik ma'nolarini shakllantiradi va tinglovchiga ma'ruzachining ichki munosabatini anglash imkonini beradi.

Urg'u nutq oqimida muayyan bo'g'in yoki so'zni boshqa bo'laklarga nisbatan kuchliroq, cho'ziqroq yoki balandroq talaffuz qilish orqali ajratib ko'rsatish hodisasidir. O'zbek tilida urg'u asosan dinamik xarakterga ega bo'lib, ko'pincha so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi: Urg'u nutqni segmentlarga ajratish, ma'noni aniqlashtirish va fonetik yaxlitlikni ta'minlash vazifalarini bajaradi. Ayrim hollarda urg'u o'zgarishi grammatik ma'no farqlanishiga ham olib keladi.

Gap urg'usi yoki mantiqiy urg'u gap tarkibidagi eng muhim axborotni ajratib ko'rsatishga xizmat qiladi. U kommunikativ markazni belgilaydi va tinglovchi diqqatini aynan kerakli unsurga qaratadi.

Ohang nutqning eng murakkab supersegment birliklaridan biri. Ohang gapning kommunikativ turini aniqlashda asosiy rol o'ynaydi. Ohang nutqning hissiy-ekspressiv bo'yqadorligini ta'minlaydi, matnning semantik strukturasi shakllantiradi hamda tinglovchining e'tiborini boshqaradi.

Nutq tezligi, tembr, ovoz balandligi, ovoz toni, urg'u, gap urg'usi, ohang, pauza va ritm tilning segment birliklaridan tashqarida faoliyat ko'rsatuvchi supersegment vositalar sifatida nutqning mazmuniy, emotsional va pragmatik qirralarini shakllantiradi. Ushbu vositalar yordamida ma'ruzachi bir xil leksik material asosida turli hissiy

holatlarni, kommunikativ maqsadlarni va munosabatlarni ifodalashi mumkin, shu bois ular og'zaki nutqning ta'sirchanligi, ifodaliligi, ravonligi va kommunikativ samaradorligini ta'minlovchi asosiy fonetik-pragmatik omillar sifatida baholanadi.

Paraverbal muloqot tizimida pauza, yo'tal, xo'rsinish, kulish, yig'lash, uh tortish, ovoz chiqarib nafas olish, ovozi reaksiyalar kabi hodisalar ekstralingvistik vositalar deb yuritiladi. Ular tilning lug'aviy va grammatik birliklariga kirmasa-da, nutqning mazmunini aniqlashtirish, emotsional-ekspressiv ma'nolarni ifodalash, kommunikativ munosabatlarni tartibga solish hamda suhbatdoshga qo'shimcha axborot yetkazish vazifasini bajaradi.

Pauza nutq oqimining ma'lum vaqt davomida to'xtatilishi bo'lib, u nafaqat fiziologik ehtiyoj, ya'ni nafas olish zarurati bilan, balki nutqning semantik, sintaktik va pragmatik tuzilishi bilan ham bog'liq holda yuzaga keladi. Pauza tufayli nutq alohida ma'no bloklariga bo'linadi, fikrlarning chegaralari aniqlanadi va tinglovchiga axborotni qayta ishlash uchun imkoniyat yaratiladi. Nutq jarayonida pauza mantiqiy bo'linish vazifasini bajarganligi sababli, uning noto'g'ri qo'llanishi ma'no buzilishiga olib kelishi mumkin.

Yo'tal fiziologik jihatdan nafas yo'llarini tozalash refleksi bo'lsa-da, kommunikativ vaziyatlarda u ko'pincha pragmatik signal sifatida ham namoyon bo'ladi. Ayniqsa, rasmiy yoki norasmiy suhbatlarda yo'tal nutqning boshlanishini bildiruvchi, suhbatdoshning diqqatini jalb qiluvchi yoki ma'lum noqulaylikni ifodalovchi vosita sifatida qo'llanadi. Masalan, yig'ilishda so'z boshlamochi bo'lgan kishi avval yengil yo'talib olishi mumkin, bunda yo'tal fiziologik ehtiyojdan ko'ra ko'proq auditoriyani o'ziga qaratish vazifasini bajaradi. Shuningdek, ayrim holatlarda yo'tal suhbatdoshning aytilgan fikrga nisbatan noroziligi yoki shubhasini bilvosita ifodalovchi vosita sifatida ham xizmat qiladi.

O'zbek muloqot madaniyatida kishi to'g'ridan-to'g'ri tanbeh bermasdan, kimningdir noo'rin xatti-harakatiga e'tibor qaratish uchun yengil yo'tal orqali signal berishi mumkin. Bunday vaziyatlarda yo'tal ma'lum ijtimoiy ma'noga ega bo'lgan ekstralingvistik birlik sifatida namoyon bo'ladi.

Xo'rsinish insonning chuqur nafas olib, uni tovush bilan chiqarishi natijasida yuzaga keladigan akustik hodisa bo'lib, odatda ichki hissiy holatning tashqi ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Xo'rsinishning semantik talqini muloqot vaziyatiga bog'liq ravishda o'zgaradi. Masalan, "Eh, zamonlar o'tdi..." kabi iboralardan oldingi xo'rsinish afsuslanish ma'nosini ifodalasa, uzoq kutilgan ish muvaffaqiyatli yakunlangach chiqarilgan xo'rsinish yengillik va qoniqish hissini anglatadi.

Kulish insonning emotsional reaksiyalarini ifodalovchi eng murakkab ekstralingvistik vositalardan biri bo'lib, u quvonch, mamnunlik, hayrat, istehzo, kinoya yoki asabiylik kabi turli holatlarni aks ettirishi mumkin. Shu sababli kulishning kommunikativ ma'nosi uni yuzaga keltirgan vaziyat va intonatsion xususiyatlarga bog'liq ravishda talqin qilinadi. Masalan, samimiy kulgi ijobiy emotsional fon yaratib, suhbatdoshlar o'rtasidagi masofani qisqartiradi va muloqotning do'stona tus olishini ta'minlaydi. Biroq istehzoli kulgi aksincha, suhbatdoshga nisbatan salbiy munosabatni bildirishi mumkin.

#### ADABIYOTLAR

1. Irisqulov I. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent, 2009. B. 256
2. Zaripov R.E. Shaxslararo va madaniyatlararo kommunikatsiya. O'quv qo'llanma. Toshkent – "Ilm ziyo zakovar" - 2025. 140-bet.
3. Кашкин В.Б. Основы теории коммуникации. – М., 2007, электронная версия // <http://kachkine.narod.ru/CommTheory/Contents/Contents.htm>

Kulishning nutqdagi vazifasi faqat emotsiyani ifodalash bilangina cheklanmaydi, chunki u suhbat ritmini boshqaradi, muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi ijtimoiy yaqinlikni belgilaydi hamda kommunikativ muhitni shakllantiradi.

Yig'lash insonning eng kuchli hissiy reaksiyalaridan biri bo'lib, qayg'u, iztirob, sog'inch, qo'rquv, ruhiy zo'riqish yoki ba'zan cheksiz quvonch natijasida yuzaga keladi. Kommunikativ jihatdan yig'lash nutqning verbal qismidan ham kuchliroq ta'sir ko'rsatishi mumkin, chunki u insonning ichki kechinmalarini bevosita namoyon etadi. Masalan, inson "Men juda afsusdaman" deb oddiy tarzda aytishi mumkin, biroq yig'lab turib shu fikrni ifodalasa, uning hissiy ta'siri bir necha barobar ortadi. Shu sababli yig'lash ko'pincha so'zlarning o'rni bosuvchi kuchli ekstralingvistik vosita sifatida qaraladi.

Nutqda tez-tez uchraydigan "eh", "uh", "voy", "obbo", "uff", "evoh", "oh" kabi tovush komplekslari ham ekstralingvistik vositalar sirasiga kiradi. Ular ko'pincha insonning bir lahza hissiy holatini ifodalaydi va nutqning pragmatik ma'nosini kuchaytiradi. Masalan:

"Oh, naqadar go'zal manzara!" ifodasida hayrat va zavq;

"Uff, juda charchadim" ifodasida toliqish;

"Voy, nima bo'ldi?" ifodasida qo'rquv yoki xavotir;

"Eh, imkoniyat qo'ldan ketdi" ifodasida afsuslanish ma'nolari ifodalanadi.

Bunday reaksiyalar ko'pincha nutqning boshlanishida yoki ma'lum fikrlarni emotsional jihatdan kuchaytirish uchun qo'llanadi.

Pauza, yo'tal, xo'rsinish, kulish, yig'lash va boshqa ekstralingvistik tovushlar verbal axborotning emotsional fonini yaratadi, kommunikativ niyatni aniqlashtiradi, suhbatdoshlar o'rtasidagi munosabatlarni belgilaydi hamda aylantirgan fikrning ta'sirchanligini oshiradi. Shu bois zamonaviy paralingvistika va pragmalogik vositalarni nutqning ikkilamchi emas, balki ma'no hosil qiluvchi va kommunikativ samaradorlikni ta'minlovchi muhim tarkibiy unsurlari sifatida baholaydi. Natijada og'zaki nutqning haqiqiy mazmuni ko'pincha faqat so'zlar orqali emas, balki aynan ana shu ekstralingvistik signallar orqali to'liq anglashiladi.

**Xulosa va takliflar.** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, paraverbal va ekstralingvistik vositalar inson muloqotining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, ular nutqning mazmuniy, emotsional va pragmatik qatlamlarini shakllantirishda muhim vazifalarni bajaradi. Nutq tezligi, tembr, ovoz balandligi, ovoz toni, urg'u, gap urg'usi, ohang, ritm va pauza kabi prosodik vositalar axborotni nafaqat uzatadi, balki uning qabul qilinish darajasi, ta'sirchanligi va kommunikativ samaradorligini ham belgilaydi. Mazkur vositalar yordamida so'zlovchi o'z munosabati, hissiy kechinmalari va kommunikativ niyatlarini yanada aniqroq ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuningdek, yo'tal, xo'rsinish, kulish, yig'lash va boshqa ekstralingvistik signallar suhbatdoshlarning emotsional holatini ifodalash, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish, nutqning pragmatik mazmunini kuchaytirish va kommunikativ vaziyatni boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi.